



**Surxondaryo viloyatining  
sanoat ishlab chiqarishi  
(2020- yil yanvar-avgust)**



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020- yilning yan-var-avgust oylarida viloyat korxonalaridan 3 trln. 91,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi\* 108,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (87,7 %) ni tashkil etdi.



**Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
sanoat ishlab chiqarish**



Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 17,9 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishda - 24,4 % ga pasayish kuzatildi.

Shuningdek, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 10,3 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 21,8 % ga o'sishi kuzatildi.

\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



**Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi**



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2020- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 141,7 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,6 % ini tashkil etdi.



**Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan chaqiq tosh - 1,8 martaga, tabiiy qum - 28,4 % ga hamda koʻmir qazib olish - 14,8 % ga oshgan boʻlsa, neft qazib olish - 1,8 % ga, qattiq tuz (osh tuzidan tashqari) - 23,7 % ga, yodgorliklar, pardoqlash yoki qurilish ishlari uchun granit, qum-tosh va boshqa toshlar - 52,6 % ga pasaygan.




Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-avgust	2020- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
<b>Ko'mir, ming t.</b>	143,2	164,4	21,2
<b>Neft, ming t.</b>	55	54	-1,0
<b>Qattiq tuz (osh tuzidan tashqari), ming t.</b>	20,6	15,7	-4,9
<b>Qum, ming t.</b>	28,7	36,9	8,2
<b>Chaqiq tosh, ming t.</b>	45,0	82,8	37,8
<b>Yodgorliklar, pardoqlash yoki qurilish ishlari uchun granit, qumtosh va boshqa toshlar, ming t.</b>	2,8	1,3	-1,5



### Ishlab chiqaradigan sanoat

2020- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalaridan tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2 trln. 711,7 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 87,7 % ini tashkil etdi.







**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi  
bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da**

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % ni (2019- yilning yanvar-avgust oylarida - 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 0,4 % (0,5 %), o'rta-quyi texnologiyali - 23,8 % (25,3 %) va quyi texnologiyalisi - 63,3 % (58,7 %) ni tashkil etdi.

**2019- yil  
yanvar-avgust, % da**



**2020- yil  
yanvar-avgust, % da**




yuqori texnologiyali  
 o'rta-yuqori texnologiyali  
 quyi texnologiyali  
 o'rta-quyi texnologiyali

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi - 5,7 % (2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 106,6 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 0,7 % (2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 2,2 m.), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 42,2 % (2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 140,5 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 27,1 % (2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 77,3 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 0,7 % (2019-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 129,5 %) ni tashkil etdi.



**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati**



2020- yilning yanvar-avgust oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 14,1 ming tonna paxta tolasi (2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 24,8 m.), 23,0 ming tonna yigirilgan ip (120,6 %), 92,1 ming tonna un (125,0 %), 111,1 ming tonna portlandsement, 5,7 tonna tozalangan paxta yog'i (129,7 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.







**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-avgust	2020- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Paxta tolasi, <i>ming t.</i>	0,6	14,1	13,5
Tozalangan paxta yog'i, <i>ming t.</i>	4,4	5,7	1,3
Un, <i>ming t.</i>	73,7	92,1	18,4
Portlandsement, <i>ming t.</i>	0,0	111,1	111,1
Dizel yoqilg'isi, <i>ming t.</i>	7,6	1,8	-5,8
Sut, <i>t.</i>	320,7	236,6	-84,1
Sariyog', <i>t.</i>	0,9	1,8	0,9





**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash  
va havoni konditsiyalash**



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 192,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sano-at mahsulotlari hajmi-ning (6,2 % ini) tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-avgust oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi - 20,4 % ga oshganligi kuzatildi.






**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni  
konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari  
tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-avgust	2020- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	2,02	0,004	-2,016
Issiqlik energiyasi, ming gkal	39,9	24,6	-15,3



**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,  
chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 44,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,4 % ini) tashkil etdi.



**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish  
va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari  
tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-avgust	2020- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	1,7	2,1	0,4
Xavfsiz chiqindilarga butunlay yo'qotish uchun ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	4,4	6,4	2,0

O'tgan yilning mos davriga nisbatan xavfsiz chiqindilarga butunlay yo'qotish uchun ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 44,5 % ga, boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar - 51,6 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 22,6 % ga oshganligi, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar - 10,2 % ga kamayganligi kuzatildi.



## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1 trln. 209,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 96,1 % ni tashkil etgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 39,1 % ni tashkil etdi.



2019- yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2020- yilning yanvar-avgust oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlarning ulushi 49,6 % dan 54,0 % gacha ko'payganligi qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 2,6 % (2019- yil yanvar-avgust oylarida - 4,5 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Termiz shahriga to'g'ri kelib - 22,4 % ni, shuningdek, Denov tumani - 17,7 % ni hamda Sho'rchi tumani - 14,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (96,1 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Qumqo'rg'on (146,7 %), Oltinsoy (112,3 %), Sho'rchi (104,0 %), Qiziriq (100,1 %), Angor (99,5 %), Muzrabot (98,0 %), Sariosiyo (97,1 %), Uzun (96,7 %) tumanlari va Termiz shahrida (97,2 %) qayd etildi.





**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**  
(2020- yilning yanvar-avgust oylarida)

	<b>Mrd. so'm</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, % da</b>	<b>O'sish sur'ati, % da</b>
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>1209,0</b>	<b>100,0</b>	<b>96,1</b>
<b>Termiz sh.</b>	<b>271,1</b>	<b>22,4</b>	<b>97,2</b>
tumanlar:			
<b>Angor</b>	<b>36,1</b>	<b>3,0</b>	<b>99,5</b>
<b>Bandixon</b>	<b>1,5</b>	<b>0,1</b>	<b>95,9</b>
<b>Boysun</b>	<b>37,0</b>	<b>3,1</b>	<b>95,0</b>
<b>Denov</b>	<b>213,8</b>	<b>17,7</b>	<b>86,6</b>
<b>Jarqo'rg'on</b>	<b>89,1</b>	<b>7,4</b>	<b>91,2</b>
<b>Qumqo'rg'on</b>	<b>57,4</b>	<b>4,7</b>	<b>146,7</b>
<b>Qiziriq</b>	<b>26,3</b>	<b>2,2</b>	<b>100,1</b>
<b>Muzrabot</b>	<b>22,1</b>	<b>1,8</b>	<b>98,0</b>
<b>Oltinsoy</b>	<b>50,2</b>	<b>4,2</b>	<b>112,3</b>
<b>Sariosiyo</b>	<b>53,6</b>	<b>4,4</b>	<b>97,1</b>
<b>Termiz</b>	<b>75,2</b>	<b>6,2</b>	<b>85,0</b>
<b>Uzun</b>	<b>39,5</b>	<b>3,3</b>	<b>96,7</b>
<b>Sherobod</b>	<b>57,0</b>	<b>4,7</b>	<b>83,0</b>
<b>Sho'rchi</b>	<b>179,1</b>	<b>14,8</b>	<b>104,0</b>



**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar  
tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 662,9 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 21,4 % ni tashkil etdi.




**Surxondaryo viloyati hududlari kesimida  
sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

	<b>2020- yil yanvar-avgust mlrd. soʻm</b>	<b>Fizik hajm indeksi, % da</b>
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>3091,0</b>	<b>108,2</b>
<b>Termiz sh.</b>	<b>676,0</b>	<b>108,2</b>
tumanlar:		
<b>Angor</b>	<b>70,5</b>	<b>109,1</b>
<b>Bandixon</b>	<b>1,4</b>	<b>103,3</b>
<b>Boysun</b>	<b>51,2</b>	<b>108,3</b>
<b>Denov</b>	<b>316,7</b>	<b>108,3</b>
<b>Jarqoʻrgʻon</b>	<b>551,9</b>	<b>101,8</b>
<b>Qumqoʻrgʻon</b>	<b>243,5</b>	<b>167,5</b>
<b>Qiziriq</b>	<b>95,4</b>	<b>96,1</b>
<b>Muzrabot</b>	<b>86,1</b>	<b>160,5</b>
<b>Oltinsoy</b>	<b>52,5</b>	<b>105,0</b>
<b>Sariosiyo</b>	<b>307,4</b>	<b>101,9</b>
<b>Termiz</b>	<b>115,1</b>	<b>103,7</b>
<b>Uzun</b>	<b>81,1</b>	<b>104,9</b>
<b>Sherobod</b>	<b>218,3</b>	<b>103,5</b>
<b>Shoʻrchi</b>	<b>223,9</b>	<b>111,4</b>



**Surxondaryo viloyati hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da**


Viloyat sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining ko'payishiga, Qumqo'rg'on (2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan 167,5 %), Muzrabot (160,5 %), Sho'rchi (111,4 %), Angor (109,1 %), Boysun (108,3 %), Denov (108,3 %) tumanlari hamda Termiz shahrida (108,2 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada ko'payganligi bilan izohlashimiz mumkin.



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Qumqo'rg'on (2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan 146,7 %), Oltinsoy (112,3 %), Sho'rchi (104,0 %), Qiziriq (100,1 %) tumanlarida sezilarli darajada oshdi.



**Surxondaryo viloyati jami sanoat  
mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da**



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Termiz shahri (Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 21,9 % i) hamda Jarqo'rg'on (17,9 %), Denov (10,2 %), Sariosiyo (9,9 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Bandixon (0,05 %), Boysun (1,7 %) hamda Oltinsoy (1,7 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Jarqo'rg'on (2 522,6 ming so'm), Termiz (1 486,5 ming so'm), Sariosiyo (1 463,1 ming so'm) tumanlari va Termiz shahrida (3 130,7 ming so'm) o'rtacha Viloyat darajasi ko'rsatkichidan (1 170,3 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 457,7 ming so'm bo'lgani holda, Termiz shahrida - 1 499,4 ming so'mni, Termiz tumanida - 971,7 ming so'mni, Sho'rchi tumanida - 855,4 ming so'mni va Denov tumanida - 553,6 ming so'mni tashkil etdi.



**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari  
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**  
(2020- yil yanvar-avgust oylarida, ming so'm)

	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>1170,3</b>	<b>457,7</b>
<b>Termiz sh.</b>	<b>3739,0</b>	<b>1499,4</b>
tumanlar:		
<b>Angor</b>	<b>530,9</b>	<b>272,1</b>
<b>Bandixon</b>	<b>19,1</b>	<b>18,9</b>
<b>Boysun</b>	<b>441,8</b>	<b>319,6</b>
<b>Denov</b>	<b>819,8</b>	<b>553,6</b>
<b>Jarqo'rg'on</b>	<b>2522,6</b>	<b>407,0</b>
<b>Qumqo'rg'on</b>	<b>1036,8</b>	<b>244,4</b>
<b>Qiziriq</b>	<b>834,6</b>	<b>229,9</b>
<b>Muzrabot</b>	<b>606,6</b>	<b>155,8</b>
<b>Oltinsoy</b>	<b>296,3</b>	<b>283,3</b>
<b>Sariosiyo</b>	<b>1463,1</b>	<b>255,1</b>
<b>Termiz</b>	<b>1486,5</b>	<b>971,7</b>
<b>Uzun</b>	<b>471,7</b>	<b>229,7</b>
<b>Sherobod</b>	<b>1123,9</b>	<b>293,4</b>
<b>Sho'rchi</b>	<b>1069,2</b>	<b>855,4</b>






**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda  
kichik biznesning ulushi**

*(2020- yil yanvar-avgust oylarida, % da)*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 trln. 348,9 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 43,6 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Oltinsoy, Bandixon va Uzun tumanlarida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 % dan), Boysun tumanida (95,0 %), Termiz tumanida (94,2 %), Angor tumanida (89,9 %) hamda Qiziriq (83,9 %) kuzatildi.

Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Sherobod (24,7 %), Shoʻrchi (27,9 %), Jarqoʻrgʻon (29,8 %), Qumqoʻrgʻon (30,7 %), Muzrabot (34,7 %), Sariosiyo (38,4 %) hamda Termiz shahri (33,9 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



**Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**  
(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 3847 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 662 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 17,2 %) Termiz shahriga, 455 tasi (11,8 %) Denov tumaniga to'g'ri kelmoqda.




2020- yil yanvar-avgust oylarida viloyatda 1451 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 194 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 13,4 %) Denov tumanida, 159 tasi (11,0 %) Termiz shahrida, 129 tasi (8,9 %) Sho'rchi tumanida, 124 tasi (8,5 %) Qumqo'rg'on tumanida hamda 121 tasi (8,3 %) Oltinsoy tumanida tashkil etildi.




**Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari  
(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra)**

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonalari joylashgan hududlar 5 taligida Termiz shahri (662 ta), Denov (455 ta), Qumqo'rg'on (262 ta), Sho'rchi (261 ta) hamda Jarqo'rg'on (244 ta) tumanlari qayd etildi.

Viloyat miqyosida eng ko'p sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashgan shahar va tumanlar 5 taligi  
(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra)



Viloyat miqyosida eng kam sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashgan shahar va tumanlar 10 taligi  
(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra)



2020- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar 5 taligiga esa Bandixon (41 ta), Qiziriq (175 ta), Oltinsoy (188 ta), Muzrabot (194 ta), Angor (200 ta) tumanlari qayd etildi.

**Sanoat statistikasi  
bo'limi**  
Tel.: (76) 225-65-76